

---

“Sektor rahbarlari va yoshlar uchrashuvi”da yigit-qizlar qo‘llab-quvvatlandi  
O‘zbekiston tumanida yoshlarni har sohada qo‘llab-quvvatlash, ularning taklif va tashabbuslarini amalga oshirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugun tuman Madaniyat markazida o‘tkazilgan “Sektor rahbarlari va yoshlar uchrashuvi”da ham shu haqida so‘z bordi. Tadbirda tuman sektor rahbarlari, yoshlar ishlari bo‘limi vakillari, “Yoshlar daftari”dagi yigit-qizlar va ularning ota-onalari, nuroniylar va yoshlar yetakchilari ishtirok etdi.

Ta‘kidlandiki, o‘tgan 2024 yilda “Yoshlar daftari” jamg‘armasi hisobidan va boshqa manzilli dasturlar doirasida tumandagi 2 ming 100 nafardan ziyod yoshni qo‘llab-quvvatlash maqsadi uchun 1 mlrd 563 million so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

Joriy yilda ham “Yoshlar daftari”dagi yigit-qizlarni qo‘llab-quvvatlab, ularning orzu maqsadlarini ro‘yobga chiqarish yuzasidan aniq reja-tadbirlar belgilangan.

Tuman hokimi Sherzodjon Yuldashev ertamiz egalarining bandligini ta‘minlash, ularni sifatli ta‘lim bilan qamrab olish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yo‘lidagi harakatlar tumanda kelgusida ham ishonchli davom etishini bildirdi.

Ochiq muloqot tarzida kechgan uchrashuv davomida 12 nafar yoshning o‘z-o‘zini band qilish uchun zaruriy asbob-uskunalar, oliy ta‘lim muassasalarida o‘qiyotgan 44 talabaning to‘lov shartnoma pullari va 3 nafar yoshga davolanish xarajatlari o‘z egalariga topshirildi.

Yoshlar vakillari shu kuni shoh va shoir, buyuk davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-musiqiy kechada ham ishtirok etib, madaniyat bo‘limi ijodkorlari tomonidan tayyorlangan dasturdan bahramand bo‘ldilar.

2025-02-14 15:36:00